



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariysi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariysi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariysi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirlari

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi

o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiysi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiysi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнали

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdu said o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar mакtablarining zarurati va ahamiyati .....	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobilovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri .....	90
Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati .....	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari .....	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliv ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumataljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika .....	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi .....	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish.....	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза .....	135
Киреева Эльвина Фларитовна	



# TALABALARDA PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

**Yusupov Ulug'bek Kadirovich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasи katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0008-0939-5877

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalarning talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Asosiy qobiliyat turlari va ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar yoritilgan. Muallif tizimli va kompetensiyaviy yondashuv asosida metodik tahlil olib borgan. Tadqiqotda interfaol metodlar, AKT va modulli o'qitish samarali natijalar bergani kuzatilgan. Empatiya, refleksiya va mustaqil fikr lash ko'nikmalarining rivojlanishi tajriba asosida asoslangan. Ilmiy yangiligi – texnologiyalar va pedagogik qobiliyatlar o'zaro bog'liqligini amaliy misollar orqali yoritilishi. Xulosa sifatida texnologiyalarni yangilash va metodikani amaliyotga yo'naltirish taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiyalar, qobiliyatlar, kompetensiya, interfaol metod, refleksiya, empatiya.

**Abstract:** This article analyzes the significance of pedagogical technologies in developing students' pedagogical abilities. It highlights the main types of abilities and the technologies that support their development. The author conducts a methodological analysis based on systematic and competency-based approaches. The study found that interactive methods, information and communication technologies (ICT), and modular teaching yielded effective results. The development of empathy, reflection, and independent thinking skills was substantiated through practical experience. The scientific novelty lies in the demonstration of the interrelation between technologies and pedagogical abilities through practical examples. As a conclusion, it is proposed to update technologies and orient methods toward practical application.

**Key words:** pedagogical technologies, abilities, competence, interactive method, reflection, empathy.

**Аннотация:** В данной статье проанализировано значение педагогических технологий в формировании педагогических способностей у студентов. Освещены основные виды способностей и технологии, способствующие их развитию. Автор провёл методический анализ на основе системного и компетентностного подходов. В исследовании выявлена эффективность интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и модульного обучения. Развитие навыков эмпатии, рефлексии и самостоятельного мышления подтверждено на основе практического опыта. Научная новизна заключается в раскрытии взаимосвязи между технологиями и педагогическими способностями через практические примеры. В качестве вывода предлагается обновление технологий и ориентация методики на практику.

**Ключевые слова:** педагогические технологии, способности, компетенция, интерактивный метод, рефлексия, эмпатия.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lrim tizimining tubdan modernizatsiya qilinishi, o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va ijodiy salohiyatga ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogik oliy ta'lim muassasalari oldida nafaqat nazariy bilimlarni etkazish, balki talabalarda kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik faoliyat murakkab, turli xil kasbiy-psixologik va kommunikativ ko'nikmalarini talab etadigan jarayondir. U o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy jarayon bo'lib, pedagogdan o'quvchini anglash, rag'batlantirish, undagi yashirin salohiyatni ochib berish hamda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish kabi ko'nikmalarini talab qiladi. Ushbu jarayonlarda talabalarni kelajakdag'i kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash ularning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir.

Pedagogik qobiliyatlar – bu shaxsning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish, ularni o'qitish va tarbiyalash jaryonini samarali boshqarish imkonini beruvchi psixologik, kommunikativ, didaktik va tashkiliy xususiyatlar yig'indisidir [1]. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, pedagogik qobiliyatlar irlsiy in'ikozi bo'lgan imkoniyat emas, balki ta'lif-tarbiya va ijtimoiy-amaliy faoliyat davomida shakllanadigan kasbiy-pedagogik sifatlar kompleksidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa ushbu qobiliyatlarni tizimli, maqsadli va natijador ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, interfaol metodlar, AKT vositalari, modulli o'qitish, loyiha uslubi va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan texnologiyalar ta'lif jarayonini talabaning shaxsiy faolligiga, tanqidiy tafakkuriga, muloqotga kirishish qobiliyatiga va ijodiy fikrashga yo'naltiradi. Shu jihatdan pedagogik texnologiyalar nafaqat ta'lif sifatini oshiradi, balki talabalarda pedagogik refleksiya, empatiya, tashkilotchilik hamda kommunikativ salohiyatni shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Hozirgi sharoitda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish talabalarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tadqiqotda aynan pedagogik texnologiyalarni amaliy qo'llash orqali talabalarda pedagogik qibiliyatlar shakllanish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, samaradorligi hamda istiqbollari ochib beriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik qibiliyatlar haqida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar izlanishlar olib borganlar. Xususan, V.A. Slastenin pedagogik qibiliyatlarni kasbiy pedagogik faoliyatning psixologik negizi deb baholaydi va uni rivojlantirish pedagog tayyorlashning ustuvor yo'nalishi ekanini ta'kidlaydi. N.V. Kuzmina esa o'z izlanishlarda pedagogik qibiliyatlarning tuzilmasini: didaktik, kommunikativ, tashkilotchilik, empatik va reflektiv komponentlarga ajratgan.

O'zbek olimlaridan N.Q. Po'latov, M. Qodirova, G. Raxmatovalar pedagogik texnologiyalar orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga urg'u beradilar.

Pedagogik texnologiyalar masalasida esa Yu.K. Babanskiy va G.K. Selevkolarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Selevko ta'lif texnologiyalarini klassik, muammoli, modul asosida o'qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), interfaol yondashuvlar kabi turlarga ajratgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" va "Ilmiy faoliyatni rag'batlantirish to'g'risida"gi qarorlari pedagogik ta'lilda innovatsion texnologiyalarni joriy etishga katta turtki bo'immoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot quyidagi metodologik asoslarga tayanadi:

Tizimli yondashuv pedagogik hodisalarini alohida, tarqoq emas, balki o'zaro bog'liq, murakkab tarkibiy tuzilishga ega yagona sistema sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Talabada pedagogik qibiliyatlar turlicha ko'nikmalar (kommunikativ, empatik, tashkiliy, reflektiv, didaktik) majmui sifatida rivojlanadi va ularni alohida emas, balki yagona kasbiy sifatlar tizimi sifatida shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu bois, ushbu tadqiqotda qibiliyatlar o'rtaсидagi o'zaro ta'sir, taraqqiy etish bosqichlari va pedagogik texnologiyalar ta'sirining butun tizimga ko'rsatgan ta'siri yaxlit holda tahlil qilinadi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lilda "bilim" emas, balki bilim + ko'nikma + malaka + qadriyatlar birligini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, talaba faqat nazariy bilimlarni egallabgina qolmasdan, ularni amaliyotda qo'llay olishi, o'z faoliyatini tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va kreativ yondashuv ko'rsatishi lozim. Mazkur yondashuv asosida:

- Kasbiy-pedagogik kompetensiyalar – dars jarayonini loyihalash, rejalashtirish va tahlil qilish qibiliyatları;
- Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar – guruh bilan ishslash, samarali muloqot, konfliktsiz muhit yaratish;
- Texnologik kompetensiyalar – AKT, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiriladi.

Shu orqali pedagogik qibiliyatlarning rivoji bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi tarzda yo'naltiriladi.

Interfaol o'qitish metodlari talabaning o'quv jarayonida passiv tinglovchidan faol ishtirokchi (subyekt) sifatida qatnashishini ta'minlaydi. Ushbu metodlar:

- "Aqliy hujum (brainstorming)", "Blits-so'rov", "Klaster", "Debat", "Rol o'ynash o'yinlari" talabaning tanqidiy-tahliliy fikrashini, muloqotga kirishishini faollashtiradi;
- Kichik guruhlarda ishslash – ijtimoiylashuv, hamkorlik, liderlik va tashkiliy qobiliyatlarni rivojlantiradi;
- Loyha asosida o'qitish – ijodkorlik, mustaqil fikrash, natijaga yo'naltirilganlikni shakllantiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### Pedagogik qobiliyatlarning tarkibi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarida muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rishda quyidagi asosiy pedagogik qobiliyatlar kompleks holda shakllanishi zarur:

1. Kommunikativ qibiliyatlar - tinglovchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, pedagogik nutqni aniq, ravon va ta'sirchan tarzda qurish, og'zaki va yozma axborotni to'g'ri etkazish malakalarini o'z ichiga oladi. Bu qobiliyat o'quvchilarning shaxsiy psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda individual va jamoaviy muloqotni tashkil etishga xizmat qiladi.
2. Tashkilotchilik qobiliyati - dars jarayonini puxta rejalashtirish, o'quvchilar faoliyatini boshqarish, ta'lif muhitida ijobjiy psixologik mikroiqlim yaratish hamda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish jarayonini kompetent ravishda amalga oshirish ko'nikmalarini nazarda tutadi.
3. Didaktik qobiliyat - ta'lif mazmunini didaktik tamoyillar asosida talabalarga sodda, tushunarli, qiziqarli va samarali usullar orqali etkazish, metodik vositalar tanlash va moslashtira bilishga qaratilgan. Ushbu qobiliyat o'quv materialining strukturasi, ketma-ketligini aniqlash hamda uni kreativ yondashuv bilan taqdim etishni talab qiladi.
4. Empatik qobiliyat - ta'lif jarayonida o'quvchilarning hissiy-ruhiy holatini anglash, ularning kayfiyatiga mos tarzda pedagogik ta'sir ko'rsatish, psixologik yordam ko'rsatish va hamdardlik bildirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Empatiya o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlaydi.
5. Reflektiv qobiliyat - o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, baholash, xatolarni tan olish va ularni bartaraf etish, o'z ustida ishslash va pedagogik mahoratini uzlucksiz takomillashtirishga intilishdan iboratdir.

**Pedagogik texnologiyalarning roli.** Pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga kompleks joriy etish talabalarning mustaqil fikrashi, ijodiy yondashuvi, muammoni hal etish ko'nikmalarini va pedagogik qobiliyatlarini rivojlanтирishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida quyidagi texnologiyalar ijobjiy natija bergani kuzatildi:

Interfaol ta'lif metodlari (klaster, "aqliy hujum"). Bunday metodlar talabalarni faollashtiradi, ularni o'z fikrini erkin ayta olish, muloqotga kirishish, jamoada ishslashga o'rgatadi. Natijada talabalar orasida kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarining rivojlanishi kuzatildi.

Axborot-kommunikativ texnologiyalar (multimedia prezentsiyalar, onlayn test tizimlari, masofaviy ta'lif platformalari). Bu orqali didaktik jarayonni interaktivlashtirib, talabalar orasida mustaqil bilim izlash, o'zini baholash, reflektiv fikrash hamda axborotni qayta ishlab chiqarish ko'nikmalarini kuchaytirdi.

Portfolio texnologiyasi asosida talabalarning o'z rivojlanish dinamikasini kuzatish, kasbiy yutuqlarini tizimlashtirish, kompetensiyalarini baholash imkonini berib, ularni o'z ustida doimiy ishslashga undaydi. Bu esa reflektiv va ijodiy qobiliyatlarining shakllanishiga turki bo'ldi.

Modulli o'qitish texnologiyasi – o'quv jarayonini shaxsiylashtirish orqali har bir talabaga moslashtirilgan rivojlanish yo'nalishini yaratadi. Bu talabalarda empatiya, mustaqillik va kasbiy mas'uliyat kabi sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

### Tajriba asosidagi natijalar.

2024–2025-yillar davomida Andijon, Samarqand va Nukusdagi pedagogika oliy ta'lif muassasalarida olib borilgan kuzatuv va eksperimentlar shuni ko'rsatdiki:

- Interfaol metodlardan foydalangan guruhdagi talabalar test sinovlarida 21% yuqori natija ko'rsatdi.
- Raqamli texnologiyalardan doimiy foydalangan talabalar pedagogik stajirovkada yuqori baho olganlar soni 34%ga ko'paygan.
- Empatik yondashuv o'rgatilgan guruhdagi talabalar darslarda o'zaro bahamjihatlik ko'rsatganliklari bo'yicha 87% ijobjiy baholangan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogik kadrlarni tayyorlashda pedagogik texnologiyalarning roli beqiyosdir. Ular nafaqat o'qituvchilik ko'nikmalarini, balki talabaning ichki kasbiy motivatsiyasi, ijodiy yondashuvi, didaktik va tashkilotchilik salohiyatini ham rivojlanтиради.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish – bu kompleks va bosqichma-bosqich kechuvchi jarayon bo'lib, unga texnologik yondashuv yuqori natijadorlikni ta'minlaydi.

2. Talabalar faolligi, mustaqil fikrashi va refleksiya qilish qobiliyatları zamonaviy texnologiyalar orqali keskin oshiriladi.
3. Interfaol va axborot-kommunikatsion texnologiyalar samarali kombinatsiyasi pedagogik sifatlarni shakllantirishda muhim omildir.
 

O'rganilgan tahlillarimizdan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni kiritishmiz mumkin:

  1. Pedagogik oliy ta'lismuassasalarida texnologik metodikalarni muntazam yangilab borish.
  2. Pedagogika fanidan amaliy mashg'ulotlarda faollikni oshiruvchi innovatsion metodikalarni keng joriy etish.
  3. Talabalarda refleksiya, empatiya va ijodiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan kurslar ochish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). "2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" PQ-210-son qaror, 2023-yil 28-iyun. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/6204> (yoki boshqa rasmiy huquqiy manba: <https://lex.uz>)
2. Сластенин В.А. Педагогика. – М.: Школа-Пресс, 2002.
3. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998.
4. Кузмина Н.В. Профессионализм личности учителя. – Л.: Ленинград университети, 1990.
5. Qodirova M., Po'latov N.Q. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
6. Raxmatova G. Pedagogik kompetensiya va kasbiy mahorat. – Toshkent, 2021.
7. UNESCO. ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications. – 2021.
8. Brown, H.D. Teaching by Principles. – Pearson Education, 2015.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.